

To'xtayev Sardor Sulton o'g'li

Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti talabasi

ADLIYA SOHASIDA RAQAMLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Tuxtayev Sardor Sulton ugli

Student of University of world economy and diplomacy

MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF DIGITALIZATION IN THE FIELD OF JUSTICE

Тухтаев Сардор Султон угли

Студент университета мировой экономики и дипломатии.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВИЗАЦИИ В СФЕРЕ ЮСТИЦИИ

Annotatsiya. Adliya vazirligi faoliyatining asosiy yo'nalishlari bu huquqni muhofaza qilish organlari va davlat boshqaruvi organlari ishtirokida respublikada qonunchilik jarayoni qonuniyligini va huquq-tartibot mustahkamlashini ta'minlash, shuningdek, huquqiy umumiy ta'limning kompleks davlat dasturi bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarning uzoq muddatli rejalarini ishlab chiqadi va uning ijrosini nazorat qiladi. Barcha davlat va boshqa organlardan huquqiy statistika ma'lumotlarni talab qilib oladi, ushbu masalalar bo'yicha statistik hisobotning yuritilishiga va tahlil qilishga uslubiy rahbarlik qilishni ta'minlaydi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis va O'zbekiston Respublikasi Prezidentini fuqarolarni huquqiy himoya qilinganligini va ularga yuridik yordam ko'rsatishning ahvoli to'g'risida xabardor qilib turadi. Bu kabi faoliyatni amalga oshirish vaqtida, albatta, turli xildagi muammolar kelib chiqmasligi, olib borilayotgan ishlarning sifatli bo'lishida ham, ishonchli va tezkorlikda Adliya sohasida raqamlashtirish muhim sanaladi. Ushbu maqolada Adliya sohasida raqamlashtirishni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari haqida fikr va mulohazalar qilinadi.

Kalit so'zlar: Adliya sohasi, raqamlashtirish jarayoni, zamonaviy tendensiyalar, ishonchlilik, tamoyil, fuqarolar huquqlari, faoliyat.

Ma'lumki, Adliya vazirligi o'z faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari bo'yicha va o'z tashabbuslariga ko'ra, qonunchilik va normativ huquq aktlarining loyihalarini ishlab chiqadi va ularni ko'rib chiqish uchun tegishli organlarga kiritadi, yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarning loyihalari

yuzasidan yuridik xulosalar beradi, respublika qonunchiligini tartibga solish bo'yicha ishlarni olib boradi, ularga o'zgarishlar yoki qo'shimchalar kiritishga oid takliflarni tayyorlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi Farmoni e'lon qilindi.

Bugungi kunda mamlakatimizda tub islohotlar davrida adliya idoralariga tobora mas'uliyatli va muhim vazifalar yuklanmoqda. Xususan, yagona davlat huquqiy siyosatini tashkil etish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish, fuqarolarga malakali yuridik yordam ko'rsatish borasida adliya organlari va muassasalari faoliyati o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Farmonda ularning ushbu yo'nalishdagi ishlarini yanada rivojlantirish bilan birga, hozirgi karantin sharoitida adliya idoralari faoliyatini masofaviy tarzda tashkil etish maqsadida sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga e'tibor qaratilgan.

Ta'kidlash joizki, adliya idoralarining raqamli texnologiyalar yordamida faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun zarur qonunchilik bazasi shakllantirilmoqda. “Harakatlar strategiyasi”da ko'rsatib o'tilgan islohotlarni to'laqonli amalga oshirish va belgilangan maqsadlarga erishishda Adliya vazirligining institutsional asoslari va faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha bir qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bu borada Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini misol sifatida keltirish mumkin. Rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalariga nazar solsak, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davlat organlari faoliyatida katta o'rin tutishini ko'rishimiz mumkin.

Adliya idoralari nufuzini yuksaltirish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun to'sqinlik qilayotgan byurokratik holatlarni yo'qotish, raqamli texnologiyalar asosida ko'rsatiladigan xizmatlar sonini oshirish, shu jumladan, ma'muriy tartib-taomillar sohasini ilg'or xorijiy tajriba va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari asosida muntazam ravishda takomillashtirib borish kabi vazifalarni bajarish zamon talabidir. Farmonda adliya organlari va muassasalari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali “virtual adliya” tizimini ishga tushirish vazifasi qo'yilgan.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillar davomida deyarli barcha soha va tarmoqlarda allaqachon zamonga moslashish, uning talablaridan chetda qolmaslik uchun ham raqamlashtirish jarayoni davlat masalasiga ko'tarildi. Ko'plab hujjatlar elektronlashtirishni boshladi, shu jumladan, bu kabi tashabbuslar Adliya vazirligi faoliyatiga ham tatbiq etila boshlandi. Bu esa, avvalo, Adliya faoliyatidagi muammolarning bartaraf etilishida dasturulamal bo'ldi, deb bemalol aytish mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi bilan Adliya vazirligi doimiy amaliy aloqada bo'ladi. Bu jarayonda ham raqamlashtirish tufayli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga ko'rib chiqish uchun kiritilgan qonun loyihalariga o'z takliflarida ham elektron va raqamli tizimning samarasi mavjud.

Bugungi kunda jahonda raqamli transformatsiya hali davom etmoqda. Hatto, ilg'or mamlakatlarda ham bu jarayon tugallanmagan va raqamlashtirish darajasi tarmoqdan tarmoqqa qadar juda kuchli o'zgarib boradi. Ba'zi sohalar allaqachon axborot texnologiyalarining anchagina ta'siriga uchragan (moliyaviy xizmatlar, telekommunikatsiyalar, reteyl (chakana savdo), media sektori), boshqalari esa bu yo'lning boshida turibdi va raqamli texnologiyalarni ayrim jarayonlargagina (neft-gaz va tog'-kon tarmog'i, qishloq xo'jaligi, mudofaa sanoati) joriy etmoqda. Bu bilan birinchilardan bo'lib jadal transformatsiyalash ular uchun raqobatbardoshlikning garovi bo'lgan korxonalar shug'ullana boshladilar. Internetning barcha yerda tarqalishi esa raqamli servislarning paydo bo'lishiga imkon berdi. Bu kabi raqamlashtirish jarayoni ham mamlakatimizda jadallik bilan davom etayotgani amalda o'z isbotini topmoqda. Masalan, ko'plab vazirlik va davlat tashkilotlari qatorida Adliya faoliyatida bu jarayon boshlangan. Adliya vazirligining matbuot xizmati soha faoliyatini onlayn tarzda yoritib borishi va ma'lumotlarning, bo'layotgan jarayonning internet orqali tezkor tarqalishini buning bir yaqqol misoli deb olsak bo'ladi. Ammo raqamlashtirish jarayoni bugun yoki ertaga to'la amalga oshiriladi deb hech kim aytolmaydi, eng muhimi esa, hozirda bu borada amaliy ishlar boshlangani va hujjatlar va ma'lumotlarning, qisman Adliya sohasi faoliyatining elektron tartibda amalga oshirilayotganini bemalol keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari, O'zbekistonda, menimcha, banklar, telekommunikatsiya va sug'urta kompaniyalari boshqalarga qaraganda ancha faolroq raqamli transformatsiyaga o'tmoqda, chunki ularda daromadlilikning muhim ko'rsatkichlari texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishga bog'liq. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri vazirlik faoliyatiga rahbarlik qiladi, vazirlikka yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi. O'zining o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi. Vazirlik faoliyatining ayrim uchastkalarida va vazirlikka qarashli organlar ishiga rahbarlik qilishi uchun ularning javobgarligining darajalarini belgilaydi.

Adliya vazirligining asosiy vazifalaridan biri bo'lmish, jamoat birlashmalari ustavlarining, Respublika Vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining fuqarolar va respublikaning huquqlari va qonun manfaatlariga daxl qiluvchi normativ huquqiy aktlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va boshqa qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosalar beradi, ushbu xulosalar asosida ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonini ham soddalashtirish, ham fuqarolarga qulayliklarga yaratish maqsadida sohada raqamlashtirish jarayoni olib borilmoqda. Aslida, biz XXI-asrni nanotexnologiyalar, axborot kommunikatsion texnikalarsiz tasavvur qila olmasligimiz bor haqiqat. Shu sababdan ham raqamlashtirilgan tizimga o'tish bu nafaqat ijtimoiy talab, balki zamon talabi ham deb aytish mumkin.

Adliya sohasi faoliyatida fuqarolarga va yuridik shaxslarga huquqiy yordam berish bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyati uchun litsenziya (ruxsatnoma) berishda, xalq xo'jaligida huquqiy ishlarni muvofiqlashtirishni amalga oshirish,

uni yaxshilash yuzasidan tavsiyanomalar ishlab chiqish, ishlarning qo'yilishi amaliyotini tekshirish va tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va respublika vazirliklari, davlat qo'mitalari, idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar yuridik xizmatlarining ijobiy ish tajribalari joriy qilishi chora-tadbirlarini ko'rish, ularning tashqi iqtisodiy faoliyatlarini huquqiy ta'minlashni amalga oshirish kabi faoliyatlarning elektronlashtirishi albatta faqatgina jamiyatimizning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir.

Adliya vazirligiga yuklangan majburiyatlarni bajarishda, ya'ni vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy ijroiya hokimiyatlari bo'yicha turdagi korxonalar, tashkilotlardagi huquqiy ishlari holati va yuridik xizmatlar faoliyati, shuningdek, vazirlikda ro'yxatdan o'tgan xo'jalik birlashmalari, aksiyadorlik jamiyatlari, birjalar, auditorlik firmalarining ustavlariga rioya etilganligini nazorat qilishda, ulardan keyingi hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilish, aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatilgan organlar va korxonalarning rahbarlariga bir oy muddat ichida bajarishi shart bo'lgan talabnomalar yuborish, amaldagi qonunlarni buzganligi yoki o'z rahbarlari bilan yetkazilgan zararni davlatga yoxud korxonaga to'lamagan mansabdor shaxslarni belgilangan javobgarlikka tortish uchun yuqori turuvchi organlar yoki sudga murojaat etishda ham zamonaviy tendensiyalar asosida tashkil etilgan va sohaga tatbiq etilayotgan raqamlashtirilgan tizimdan foydalanish natijasida ish samaradorligi ham yuqori bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Farmonning qabul qilinishi adliya idoralari faoliyatida raqamli texnologiyalar joriy etish ko'rsatkichlarini yanada oshirish, malakali va sifatli davlat xizmati, jumladan, yuridik xizmat olishga bo'lgan fuqaro va tashkilotlarning manfaatlarini ta'minlash darajasini yuksaltirish, adliya va notariat faoliyatiga oid qonunchilikni takomillashtirish, adliya organlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri – davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda samarali zamonaviy mexanizmlarni qo'llashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xojiyev Ye.T. *Ma'muriy huquq. Adliya sohasini boshqarish*. T. «Ilm-ziyo». 2006-y. 417-bet.
2. Otaxonov F.H. *O'zbekiston Respublikasida yuridik xizmat*. T., «Ilm-ziyo». 2006-y.
3. Mirenskiy B.A., Raxmonqulov A.X. *O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qiluvchi organlari*. T., 2005-y. 77–88 bet.
4. <https://zamin.uz/uz/jamiyat/78121-adliya-vazirligi-va-tika-davlat-va-yuridik-xizmatlarni-raqamlashtirish-sohasidagi-qoshma-loyihalarni-amalga-oshirishni-rejalashtirmoqda.html>.
5. <https://uza.uz/oz/posts/adliya-idoralari-faoliyatida-raqamli-texnologiyalarning-aham-22-05-2020>.